

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSİYALAR VAZIRLIGI

MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI  
O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

"TASDIQLAYMAN"

Mirzo Ulug'bek nomidagi  
O'zbekiston Milliy Universiteti  
rektori



"KELISHILDI"



KASBIY (IJODIY) IMTIHONLAR DASTURI VA  
BAHOLASH MEZONI

KIRISH IMTIHONLARIDA "ONA TILI (O'ZBEK TILI)"  
FANI MAVJUD BARCHA TURDAGI YO'NALISHLAR  
(KO'ZI OJIZLAR) UCHUN DASTUR  
(majburiy fan bo'yicha)

Toshkent – 2025

Mazkur dastur Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti O‘quv uslubiy Kengashining 2025-yil 21-iyundagi 4-sonli bayonnomasi bilan ma’qullangan.

**Tuzuvchilar:**

- M.M.Kurbanova - O‘zMU O‘zbek tilshunosligi kafedrasi professori, f.f.d.  
N.G.Alavutdinova - O‘zMU O‘zbek tilshunosligi kafedrasi dotsenti, p.f.n.

**Taqrizchilar:**

- G.S.Keldiyarova - O‘zMU O‘zbek tilshunosligi kafedrasi dots.v.b.  
B.B.Abdushukurov - Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti professori, f.f.d.

**KIRISH**

Mazkur dastur ko‘zi ojiz abituriyentlar uchun mo‘ljallangan. Ona tili (o‘zbek tili) fani bo‘yicha kasbiy (ijodiy) imtohon dasturi o‘rtá maxsus kasb-hunar kollejlari va umumta’lim maktablarining “Ona tili” fani dasturi asosida tuzilgan bo‘lib, o‘zbek tilining grammatic xususiyatlari, ifoda imkoniyatlari, til va jamiyat, fonetika, orfoepiya, orfografiya, grafika, leksikologiya, morfemika, so‘z yasalishi, morfologiya, sintaksis, punktuatsiya, stilistika kabi bo‘limlar bo‘yicha berilgan mavzulardan abituriyentlarning amaliy ko‘nikma va malakalarini aniqlashda foydalaniladi.

**Fanning maqsadi va vazifalari**

Ushbu dastur bo‘lajak mutaxassis-kadrlarning kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalarini takomillashtirishga qaratilgan bo‘lib, tilshunoslik turkumidagi alohida fanlarning o‘ziga xos xususiyatlarini yoritishni ko‘zda tutadi.

Bunda abituriyentlarning kelgusi kasbiy faoliyatlar uchun puxta nazariy asos yaratish; tilshunoslik masalalarini talqin qila olish ko‘nikma va malakalarini shakllantirish maqsad qilib qo‘yilgan. Ushbu maqsadni amalga oshirishda o‘zbek tili grammaticasi asoslarini o‘zlashtirish, grammatic tahlil qilish ko‘nikmalariga ega bo‘lish vazifalari ko‘zda tutilgan.

**Abituriyentning bilimiga qo‘yiladigan talablar**

Ona tili fanidan imtihoni bor boshqa ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha imtihon topshiruvchi abituriyentlar. Ona tilidan tilning aloqa-munosabat vositasi sifatidagi ahamiyati. Til oilalari. Fonetika. Nutq tovushlari va ularning tasnifi. ““Urg‘u” va “bo‘g‘in” tushunchalari. Fonetik o‘zarishlar: tovush almashuvi, tovush tushishi, tovush ortishi. Orfoepiya. Talaffuz me’yorlari.

Orfografiya. Imlo qoidalari. Fonetik yozuv, morfologik yozuv, shakliy yozuv qoidalari. Grafika. Tovush va harf munosabati. Lotin yozuvi asosidagi yangi o‘zbek alifbosi.

Leksikologiya. Lug‘aviy ma’no va grammatic ma’no. O‘z ma’no va ko‘chma ma’no. Bir ma’noli (monosemantik) va ko‘p ma’noli (polisemantik) so‘zlar. So‘zning shakl va ma’no munosabatiga ko‘ra turlari: shakldoshlik, ma’nodoshlik, zid ma’nolilik, paronimlik hodisalari. Tarixiy so‘zlar, arxaizmlar, neologizmlar. O‘zbek tilining lug‘at boyligi. Hududiy chegaralangan so‘zlar: sheva tushunchasi. Ijtimoiy chegaralangan so‘zlar: argo va jargonlar. Termin (atama)lar. Lug‘at boyligining ortib borish usullari: ichki manba va tashqi manba. Olinma so‘zlar. Leksikografiya. Lug‘at va uning turlari.

Morfemika. So‘z tarkibi. So‘z yasovchi va shakl yasovchi (lug‘aviy shakl yasovchi, sintaktik shakl yasovchi) qo‘shimchalar.

Grammatika: morfologiya va sintaksis. Morfologiya – so‘z turkumlari, grammatic shakl, grammatic ma’no haqidagi bo‘lim sifatida. So‘z turkumlari. To‘plam va tasnif. Mustaqil so‘z turkumlari. Ot va uning morfologik xususiyatlari. Otlarning lug‘aviy shakllari: ko‘plik, kichraytirish-erkalash shakllari. Otlarning

munosabat shakllari: kelishik va egalik qo'shimchalar. Sifat. Sifat darajalari. Asliy sifat va nisbiy sifat. Tub va yasama sifatlar. Son. Miqdor son va tartib son. Hisob (o'chov) so'zlar. Olmosh. Olmoshning ma'no turlari. Kishilik olmoshlari. Ko'rsatish olmoshlari. O'zlik olmoshi. So'roq olmoshlari. Belgilash-jamlash olmoshlari. Bo'lishsizlik olmoshlari. Guman olmoshlari. Ismlar. So'zlarini turkumlarga ajratish tarixi. Ot, sifat, son, olmosh, sifatdosh, harakat nomi, taqlid so'zlarining ismlik xususiyatlari. Ismlarning munosabat shakllari. Fe'l. Fe'llarning ma'no turlari: harakat va holat fe'llari. Fe'llarda zamон, mayl, bo'lishli-bo'lishsizlik tushunchalarining ifodalanishi. O'timli va o'timsiz fe'llar. Fe'l nisbatlari. Ko'makchi fe'lli so'z qo'shilmasi (harakat tarzi shakllari). Ravish. Yordamchi so'zlar: ko'makchi, bog'lovchi, yuklama. Undov so'zlar. Taqlid so'zlar. Modal so'zlar.

Sintaksis. So'z birikmasi. So'z birikmasining bog'lanish usullari: boshqaruv, moslashuv, bitishuv. So'z birikmasi turlari: otli birikma va fe'lli birikma. Gap. Gapning ifoda maqsadiga ko'ra turlari: darak gap, so'roq gap, buyruq gap, istak gap. Gapning his-hayajon ishtirokiga ko'ra tasnifi: his-hayajon (undov) gap va his-hayajonsiz gap. Gapning tuzilishiha ko'ra tasnifi: sodda gap va qo'shma gap. Sodda gap sintaksisi. Gap bo'laklari: gapning bosh bo'laklari. Kesim: ot-kesim va fe'l-kesim. Ega. Ega ishtirokiga ko'ra sodda gap tasnifi: egasi mavjud gaplar va egasi mavjud bo'limgan gaplar. Egasi yashiringan gaplar. Egasi (shaxsi) topilmas gaplar. So'z-gap. Atov gap. Gapning ikkinchi darajali bo'laklari: hol, to'ldiruvchi, aniqlovchi. Gapning uyushiq bo'laklari: uyushiq kesim, uyushiq ega, uyushiq hol, uyushiq to'ldiruvchi, uyushiq aniqlovchi. Gapning ajratilgan bo'laklari. Gap bo'laklari bilan grammatic munosabatga kirishmaydigan bo'laklar: kiritma, kiritma gap, undalma. Sodda yig'iq gap. Sodda yoyiq gap. To'liq gap va to'liqsiz gap. Gap bo'laklari tartibi. Inversiya. Qo'shma gap sintaksisi. Qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplarni bog'lovchi vositalar. Qo'shma gapning tarkibidagi sodda gaplarni bog'lovchi vositalar xarakteriga ko'ra turlari: bog'langan qo'shma gap, ergashgan qo'shma gap, bog'lovchisiz qo'shma gap.

Uslubiyat. Nutq uslublari: so'zlashuv uslubi, rasmiy-idoraviy uslub, ilmiy uslub, ommabop uslub, badiiy uslub.

Puntuatsiya. Tinish belgilarining qo'llanishi.

**Abituriyent.** Ona tili fanini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida adabiy tilning fonetik, leksik-semantik, grammatic me'yorlari, orsografiya, orfoeziyaning nazariy masalalari asosida og'zaki va yozma nutq ko'nikmalarini, lotin yozuvni asosidagi yangi o'zbek alifbosini qoidalarini, tilshunoslikning har bir bo'limlari bo'yicha umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim dasturlariga yaqinlashtirilgan holdagi ma'lumotlarni, grammatic tahlil qilish ko'nikmasiga ega bo'lishi kerak.

## IJODIY (KASBIY) IMTIHON NATIJALARINI BAHOLASH

### M E Z O N I

Ko'zi ojizlar uchun ijodiy imtihon 5 ballik tizimda baholanadi.

Ko'zi ojizlar uchun kirish imtihonlari og'zaki tarzda o'tkaziladi va har bir imtihon biletiga uchtdan nazariy savol kiritiladi.

Ijodiy imtihonni baholashda quyidagi mezonlardan kelib chiqiladi:

#### 1. Abituriyentning javobi 5 ("a'lo")ga baholanishi uchun:

- mavzuning mohiyatini to'g'ri anglagan bo'lishi, ijodiy mulohazalar asosida yoritishi;
- mavzuni mustaqil fikr asosida bayon qilishi;
- fakt va misollardan o'rinli foydalanib to'g'ri xulosalar chiqara olishi;
- mavzu doirasidagi barcha masalalarni qamrab olishi;
- talab darajasidagi filologik va ijtimoiy-siyosiy bilimga ega bo'lishi;
- nutqi ravon bo'lib, fikrini adabiy tilda ta'sirchan ifodalay bilishi zarur.

#### 2. Abituriyentning javobi 4 ("yaxshi")ga baholanishi uchun:

- mavzu mohiyatini atroficha, ijodiy yondashuv asosida yoritishi;
- mustaqil fikrlashga intilishi;
- fikrlarini izchil ifodalash qobiliyatiga ega bo'lishi;
- nutqida mantiqiylik, ravonlik, obrazlilik ko'zga tashlanib turishi;
- manbalardan, fakt va misollardan o'rinli foydalana olishi;
- filologik va ijtimoiy-siyosiy savodxonligi yetarli bo'lishi;
- fikrini adabiy tilda to'g'ri, maqsadga muvofiq ifodalay bilishi lozim.

#### 3. Abituriyentning javobi 3 ("qoniqarli")ga baholanishi uchun:

- mavzu mohiyatini chuqurroq oolib berishi, notiqlik qibiliyati sezilib turishi;
- so'z san'ati va nutq madaniyati haqidagi tasavvuri qoniqarli darajada bo'lishi;
- so'zni bir qadar nozikroq idrok eta bilishi, fikrni izchil ifodalashga intilishi;
- fikr bayoni va uslubi ravon, mantiqiy bo'lishi;
- fakt va misollardan to'g'ri foydalanib, to'g'ri xulosalar chiqara olishi;
- fikrini adabiy tilda ifodalashga intilishi kerak.

#### 4. Abituriyentning javobi quyidagi hollarda 2 ("qoniqarsiz")ga baholanadi:

- mavzu mohiyati etarli darajada ochilmasa;
- tilshunoslik bo'limlari va adabiyot haqida muayyan tasavvurga ega bo'lmasa;
- fikrni ifodalashda g'alizlik uchrashi;
- abituriyentning mavzu yuzasidan tasavvuri yuzaki bo'lsa;
- fikrlash doirasasi tor bo'lsa;
- fikr bayoni izchil bo'lmasa;
- nutqida ravonlik, mantiqiy muvofiqlik kuzatilmasa.

## Kasbiy (ijodiy) imtihon komissiyasi tarkibi va uning faoliyatini tashkil etish

Kasbiy (ijodiy) imtihon komissiyasi faoliyati 2025-2026 o'quv yili qabul komissiyasi tomonidan tashkil etiladi.

Ona tili fanidan sinovlar mavjud barcha turdag'i ta'lim yo'nalishlar bo'yicha kasbiy (ijodiy) imtihon komissiyasi tarkibi odatda uch nafar a'zodan kam bo'limgan holda tashkil etiladi.

Ijodiy (kasbiy) imtihon natijalari uch kun muddatdan kechiktirilmagan holda e'lon qilinadi.

Ona tili fanidan sinovlar mavjud bareha turdag'i ta'limga yo'nalishlari bo'yicha ijodiy (kasbiy) imtihon natijalaridan norozi abituriyentlarning murojaatlарини ko'rib chiqish bo'yicha appellatsiya komissiyasi tashkil etiladi.

#### **Appelyatsiya komissiyasi tarkibi va uning faoliyatini tashkil etish**

Appelyatsiya komissiyasi kasbiy (ijodiy) imtihonni o'tkazgan oliy ta'limga muassasasi qabul komissiyasi tomonidan tashkil etiladi.

Abituriyent kasbiy (ijodiy) imtihon natijalari e'lon qilingan vaqtidan boshlab, 24 soat ichida appelyatsiya komissiyasiga og'zaki yoki yozma shaklda murojaat etishi shart. Belgilangan muddatdan keyin murojaatlar qabul qilinmaydi.

Appelyatsiya komissiyasi abituriyentning faqat o'zining ishi bo'yicha bildirilgan murojaatini yuzma-yuz abituriyentning ishtirokida ko'rib chiqadi va yakuniy qaromi beradi.